

9-dars. Ko'p xonali sonlarning o'qilishi va yozilishi



1. O'qing. Har bir sonda qanday **xona** tushirib qoldirilgan? Sonni yozishda bu qanday ko'rsatiladi?

Buxoroda bir yuz qirqdan ortiq tarixiy obida mavjud.

Kalon masjidining katta hovlisi ikki yuz sakkizta g'isht ustun bilan o'ralgan.

Birlar, o'nlar va yuzlar xonalari birlar sinfini tashkil etadi.
Minglar, o'n minglar va yuz minglar xonalari esa minglar sinfini tashkil etadi.

minglar sinfi			birlar sinfi		
yuz minglar	o'n minglar	minglar	yuzlar	o'nlar	birlar
1	5	8	7	2	0



2. Jadvaldagi sonlarni o'qing. Har bir sonning **xonalarini** ayting. Har bir xonada nechta birlik bor?

yuz minglar	o'n minglar	minglar	yuzlar	o'nlar	birlar
1	0	3	4	6	0
	2	4	5	6	1
8	0	0	5	9	3
		7	3	2	8



3. Sonlarni **raqamlar bilan** yozing:

- a) minglar sinfida 6 ta minglik, birlar sinfida 3 ta yuzlik, 5 ta o'nlik, 2 ta birlik;
 b) minglar sinfida 4 ta minglik, birlar sinfida 5 ta yuzlik, 1 ta o'nlik, 9 ta birlik;
 d) minglar sinfida 8 ta o'n minglik, 5 ta minglik, birlar sinfida 2 ta yuzlik, 6 ta o'nlik, 3 ta birlik.



4. Muzeyga kirish chiptasi narxi katta yoshlilar uchun 10 tanga, bolalar uchun esa 8 tanga. 2 nafar katta yoshli kishi va 4 nafar bola uchun chipta olishga necha tanga to'lash kerak?



5. Tenglamalarni yeching.

$$x - 657 = 209 + 98$$

$$860 - y = 119 + 237$$



6. Ifodalarning qiymatini amallarning **to'g'ri tartibiga** rioya qilgan holda hisoblang.

a) $6 \cdot (63 : 7 : 3 + 2) - 24 : 8$ b) $300 - (8 \cdot 7 + 9 \cdot 6) - 21 : 3$




7. Masalalarni yechish uchun **ifodalar** tuzing.

a) Bir o'ram pecheniy 10 000 so'm, bir stakan sharbat esa 8 000 so'm turadi. 3 o'ram pecheniy va 5 stakan sharbat sotib olish uchun necha so'm to'lash kerak?

b) Kinoga kirish chiptasi narxi ish kunlari 6 000 so'm, dam olish kunlari esa ish kunlaridagiga nisbatan 3 000 so'm qimmat. Yakshanba kuni 10 ta chipta olish uchun necha ming so'm to'lash kerak?



8. Ikkita **bir xil** zardo'zlik naqshini toping.



9. Zardo'z 8 ta choponni 40 kunda tikadi. Xuddi shunday 7 ta choponni tikish uchun unga qancha vaqt kerak bo'ladi?



10. Ifodalarning qiymatini amallarning **to'g'ri tartibiga** rioya qilgan holda hisoblang.

a) $7 \cdot 4 + 5 \cdot 9 - 3 \cdot 8$

b) $(58 + 38 - 33) : 7 + 14$

